



MARKAZIY OSIYO TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN
FOYDALANISH HUQUQI



Abdumalikov Xikmatullo Alisher o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bakalavr bosqichi talabasi

E-mail: abdumalikovhikmatillo71@gmail.com

Tel: [+998 94 605 09 28](tel:+998946050928)



Аннотация. *Мазкур иш xalqaro miqyosda tugab borayotgan va qayta tiklanmasligi mumkin bo'lgan, tabiiy resurs - suvdan foydalanish. Davlatlarning o'zaro tengligi to'g'risida, ularning o'zaro milliy manfaatlari to'qnashuvida olib borayotgan siyosati va bundan kelib chiquvchi natijalarini xalqaro huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Davlatlarning XXI asrga kelib o'zaro ziddiyatli vaziyatlarida diplomatik yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar, ayni damda qurolli to'qnashuvlar orqali amalga oshirilmoqda. Biz ham bunday vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun eng katta xavflardan bo'lgan suvsizlikni oldini olishga befarq bo'lmasligimiz zarur. Shu sababdan bu maqolada dengiz, daryo, ko'l va yer osti suvlaridan hamda transchegaraviy suvlardan oqilona foydalanishda bilishimiz kerak bo'lgan shartnomalar, qonunlar bilan tanishib va ularga amaldagi holatdan kelib chiqib shaxsiy fikr beriladi va bo'shliq mavjud deb hisoblangan joylariga esa qo'shimcha takliflar keltirilib o'tiladi.*

Калит со'злар: *Хавза davlatlari, vegetatsiya davri, global, resurs, konvensiya,*

Аннотация. *В данной работе рассматривается использование природного ресурса — воды, который на международном уровне стремительно сокращается и может оказаться невозполнимым. Анализируется международно-правовой аспект равенства государств, их политика в условиях столкновения национальных интересов и возникающие из этого последствия. Во взаимоотношениях государств XXI века, несмотря на наличие дипломатических средств урегулирования противоречий, всё чаще наблюдаются вооружённые конфликты. Чтобы не оказаться в подобных ситуациях, необходимо уделять особое внимание предотвращению одной из наиболее серьёзных угроз — нехватке воды. В данной статье рассматриваются договоры и законы, которые необходимо знать для рационального использования морей, рек, озёр, подземных вод, а также трансграничных водных ресурсов. На основе действующей практики*



приводится личный анализ, выявляются пробелы и предлагаются дополнительные рекомендации.

Ключевые слова: прибрежные государства, вегетационный период, глобальный, ресурс, конвенция.

Annotation. *This paper examines the use of the natural resource—water—which is rapidly diminishing on an international scale and may become non-renewable. It analyzes the international legal aspects of the equality of states, their policies during clashes of national interests, and the resulting consequences. In the 21st century, although diplomatic means exist to resolve disagreements between states, armed conflicts are increasingly being used instead. To avoid such situations, it is crucial not to remain indifferent to one of the greatest threats—water scarcity. This article reviews the treaties and laws that must be understood for the rational use of seas, rivers, lakes, groundwater, and transboundary water resources. Based on the current state of affairs, personal assessments are provided, gaps are identified, and additional recommendations are offered.*

Keywords: basin states, vegetation period, global, resource, convention.

“Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q”.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqidan

Kirish

Bugun O'zbekistonda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida, Markaziy Osiyoda ro'y berayotgan global iqlim o'zgarishi fonida mintaqani asosiy suv bilan ta'minlovchi eng yirik suv arteriyalari



Amudaryo va Sirdaryo suvidan havza davlatlari manfaatlarini teng hisobga olgan holda foydalanishni taqozo etadi. *Suv - ulug' ne'mat.*

Hayotimiz farovonligi, bozorlarimiz to'kinligi, butun olam tirikligi suvga bog'liq.

Qadimdan insonlar daryo ko'l va boshqa suv oqimiga yaqin hududlarda yashab kelgan, chunki har qanday tiriklik uchun albatta suv eng zarur ne'mat xoh u nabotot, xoh u hayvonot dunyosiga tegishli bo'lsa ham suv eng zarur elementlardan biri.

Bugun O'zbekistonda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish masalalari har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu xolat o'z navbatida, Markaziy Osiyoda ro'y berayotgan global iqlim o'zgarishi paytida mintaqani asosiy suv bilan ta'minlovchi eng yirik suv arteriyalari Amudaryo va Sirdaryo suvidan havza davlatlari manfaatlarini teng hisobga olgan holda foydalanishni taqozo etadi.

“2022 yil vegetatsiya davrida Amudaryo havzasidagi suv miqdori ancha noaniq bo'lganligi sababli, aprel-may oylarida u me'yoriy chegarada bo'lsa-da, iyun oyidan boshlab 65-85% gacha kamaygan va ko'zlangan me'yordan past bo'lgan. Sirdaryo havzasidan suv olish limiti 2022 yilning 1 apreldan 30 sentyabrgacha 11,8 milliard kub metrni tashkil etgan bo'lsa-da, amalda 10,1 milliard kub metr suv olingan. Bundan ko'rinib turibdiki, mintaqada transchegaraviy suv resurslaridan samarali foydalanish mexanizmi joriy etilmasa, istiqbolda havza davlatlari suv taqchilligi muammosiga duchor bo'lishi muqarrar”.¹

Global iqlim o'zgarishi natijasida Markaziy Osiyoda so'nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Taxminlarga ko'ra, harorat 2C ga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 4C ga isiganda esa 78 foizga kamayadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5

¹ Sanjar Umirzokov: O'ZBEKISTONNING TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH BO'YICHA SIYOSATI, 2019, (1-bet)



foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Tahlillar iqlim o'zgarishi mintaqada suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018-yillardagi kabi qurg'oqchilikning davomiyligi va davriyligi ko'payishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, mintaqada aholi sonining ko'payishi kommunal sohani yildan yilga suvga bo'lgan talabini ortishiga olib keladi. Oqibatda, so'nggi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti 3, 5 marta qisqardi.

“2024-yil 30-aprel kuni Turkmanobod shahrida Suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'zbek-turkman hukumatlararo qo'shma komissiyasining to'rtinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.”² Amudaryo qirg'oqlarini mustahkamlash, kanallar o'zanlarini tekislash orqali suv resurslari yo'qotilishini kamaytirish va suvning to'siqsiz o'tishini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratildi. O'zaro Suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'zbek-turkman hukumatlararo komissiyasining beshinchi yig'ilishini O'zbekistonda o'tkazishga kelishildi.

— **Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida Sirdaryo havzalaridan foydalanish 1998 yilda Bishkek kelishuvi tuzilgan.**

1998 yilda bu uch davlatdagi iqtisodiyot, vaziyat boshqacha edi. Endi qayta ko'rib chiqishga to'g'ri kelyapti. Shartnomaga ko'ra, Qirg'iziston suvni beradi, buning evaziga quyidagi davlatlar unga energiya yetkazib beradi. Ammo energetikada ham yetishmovchiliklar bo'lib, Qirg'izistonga yetarli berilmadi. Endi Qirg'iziston o'zi GESlari orqali energiya olmoqchi, bundan esa ko'proq Qozog'iston jabr ko'radi. Shuning uchun ham Qozog'iston qayta ko'rib chiqish masalasini ko'taryapti.

BMTning Transchegaraviy daryolardan foydalanish bo'yicha konvensiyasi mavjud. Unda suv resurslarini sotish va ularga egalik qilib olish taqiqlanadi, suv mintaqaning umumiy mulki deb belgilangan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan

² Suv hojaligi vazirligi Axborot xizmati:2024.05.02. TRANSCHEGARAVIY SUV RESURLARINI BOSHQARISH



davlatlar unga amal qilishi kerak. Lekin konvensiya umumiy xarakterga ega, detallar bilan ko'rsatilmagan. Va unda belgilab qo'yilganki, maxsus holatlar konvensiya prinsiplariga zid bo'lmagan tarzda alohida kelishuvlar orqali tartibga solinadi³.

Markaziy Osiyodagi kabi vaziyat bo'lgan 20 tacha holat bor. Deylik, Yaqin Sharqda Iordan daryosi bor. Aniq kelishuvlar bo'lmagani uchun ziddiyatli vaziyatlar ko'p bo'ladi ularda. Nil daryosi havzasida ham bir qancha muammolar bor. Yevropada Ispaniya va Portugaliya o'rtasida suv muammolari kuzatiladi. Afrika davlatlarida-ku bitta daryo bir nechta davlat hududidan o'tuvchi holatlar juda ko'p. Shuning uchun aniq kelishuvlar bo'lishi kerak. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 2050-yilga kelib Markaziy Osiyodagi muzliklarning 30 foizidan ko'prog'i yo'qolishi mumkin, bu esa past oqimdagi hududlarda suv ta'minotiga jiddiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, suvning ifloslanishi, ekotizimlarning yemirilishi va biologikxillikning kamayishi atrof-muhit barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda, biroq bu masalalarda mintaqaviy hamkorlik hanuzgacha cheklangan. Markaziy Osiyoda iqlim global o'rtacha ko'rsatkichga qaraganda ancha tez isimoqda: so'nggi 70 yil ichida harorat 1,5–2°C ga oshgan, prognozlariga ko'ra esa bu ko'rsatkich 2060 - yilgacha yana 1,5–2,8°C ga, 2100-yilgacha esa 5,1–5,8°C gacha ko'tarilishi mumkin. Bu isish natijasida so'nggi 50–60 yil davomida muzlik maydoni 30% ga qisqargan, kelgusida esa muzlik hajmi 2°C isish bilan 50% ga, 4°C isish bilan esa 78% ga kamayishi mumkin. Bunday o'zgarishlar suv resurslari mavjudligiga tahdid soladi — 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv 5% gacha, Amudaryo havzasida esa 15% gacha kamayishi mumkin. O'zbekistonda suv tanqisligi 2015-yilgacha 3 milliard m³ bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2030-yilga kelib 7 milliard m³ ga, 2050-yilgacha esa 15 milliard m³ ga yetishi mumkin. Iqlim o'zgarishi, shuningdek, toshqinlar, qurg'oqchiliklar va issiq to'lqinlar kabi yanada tez-tez va kuchli ob-havo hodisalarini yuzaga keltirmoqda.

Biz o'zaro shartnomalarni tuzishimiz mumkin ammo Afg'onistoni unutib qo'yish mumkin emas u Qo'shtepa kanalini qurish orqali Amudaryo suvini 20

³ Kun.uz.com- O'zbekiston | 15:03 / 17.08.2023



foizgacha qisqartirib suv kamayishiga katta ta'sir o'tkazdi. Qo'shtepa kanali: transchegaraviy suv boshqaruvidagi keskin o'zgarish Yaqinda yuzaga kelgan eng bahsli loyihalardan biri Afg'onistonning Qo'shtepa kanali bo'lib, qurib bitkazilgach, Amudaryodan yiliga 13 mlrd kub metr suvni burib yuborishi kutilmoqda. Kanalning uzunligi 281 km, eni 100 metr, chuqurligi 8 metr bo'lib, Afg'oniston Tojikiston chegarasidan 650 kub metr/soniya suv olish loyihalashtirilgan. Ushbu loyiha orqali Balx, Juzjon va Faryob viloyatlarida 550–585 ming gektar maydon sug'orilishi ko'zda tutilgan. 1955–1961 yillardagi Afg'onistonning iqtisodiy va ijtimoiy yetti yillik rejasidan qayta tiklangan bu loyiha hozirgacha rejalashtirilgan uzunligining uchdan bir qismi qurib bo'lingan bo'lib, uni besh yil ichida to'liq yakunlash rejalashtirilmoqda. Mazkur qurilish O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston uchun jiddiy xavotir uyg'otmoqda, chunki ular Amudaryo suvlariga qishloq xo'jaligi va gidroenergetika ehtiyojlari uchun tayanadi.⁴


| Davlatlar | Havza nomi | | Orol dengizi havzasi bo'yicha jami | |
|-----------------------------------|---------------|---------------|------------------------------------|------------|
| | Sirdaryo | Amudaryo | km.kub. | % |
| Qozog'iston | 2,516 | - | 2,516 | 2,2 |
| Qirg'iziston | 27,542 | 1,654 | 29,196 | 25,2 |
| Tojikiston | 1,005 | 58,732 | 59,737 | 51,5 |
| Turkmaniston | - | 1,405 | 1,405 | 1,2 |
| O'zbekiston | 5,562 | 6,791 | 12,353 | 10,6 |
| Afg'oniston va Eron | - | 10,814 | 10,814 | 9,3 |
| Orol dengizi bo'yicha jami | 36,625 | 79,396 | 116,021 | 100 |

1-jadval. Orol dengizi havzasining yer usti suv resurslari (o'rtacha yillik oqim, km³)

Yana yurtimiz dastlab xavf sifatida ko'rilgan Qirg'izistonda Kambar-Ota-1 va Kambar-Ota-2 GESlarining qurilishiga tabiiyki qarshi chiqdi, chunki bu loyihalar past oqimdagi suv ta'minotini izdan chiqarishi mumkinligi haqida xavotirlar mavjud

⁴ Sa'diyev N. G' - <https://doi.org/10.5281/zenodo.15650942> (3-bet)

edi. Biroq, diplomatik muzokaralar natijasida suv va energetika sohalarida hamkorlik sari siljish kuzatildi. 2017 yilga kelib, O'zbekiston va Qirg'iziston mazkur gidroenergetika loyihalari bo'yicha hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini bildirishdi. Ushbu majburiyat Qirg'iziston Milliy energetika xolding kompaniyasi va "O'zbekgidroenergo" o'rtasida Kambar-Ota-1 GES loyahasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik memorandumini imzolash orqali rasman mustahkamlandi.



O'zbekiston Respublikasining asosiy foydalanadigan suv resurslari qo'shni Tojikiston va Qirg'iziston hududida shakllanadi (qariyb 80%) qolgan qismi esa mamlakat hududida shakllanadi .

Mutaxassislar fikriga ko'ra, 1992-yilgi Xelsinki suv konvensiyasining to'liq amalga oshirilmagan. Eng jiddiy bo'shliqlardan biri — suv taqsimoti bitimlari va resurs cheklovlarini buzganlik uchun javobgarlik mexanizmining mavjud emasligidir. Bitim tarkibida rioya etishni ta'minlash mexanizmi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, hozirgacha hech qanday rasmiy sanksiya yoki jazolash chorasi ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, havza tashkilotlarini moliyalashtirish ham izchil taqsimlanmagan. Amudaryo havza tashkiloti asosan O'zbekiston va Turkmaniston tomonidan moliyalashtiriladi, Sirdaryo havza tashkiloti esa Qozog'iston va O'zbekiston hissasiga tayanadi. Biroq, ushbu moliyaviy hissa bitimning 9-



moddasida belgilangan proporsional tenglik va umumiy ishtirok tamoyiliga to'liq mos kelmaydi. Albatta biz bundan ortig'ini ham kutmaymiz chunki bizning joylashuvimiz past oqimda va javobgarlik bo'lmaganidan so'ng qoidalarga amal qilishning ham qilmaslikning ham qizi qolmaydi. Shunga o'xshash konvensiyalardan biri BMTning 1997 yildagi xalqaro suv oqimlaridan bimalol foydalanish to'g'risidagi Konvensiyasini o'z ichiga olgan ko'plab ikki va ko'p tomonlama kelishuvlarning asosini tashkil etdi. 1997 yilgi Konvensiyada ishtirokchi davlatlar transchegaraviy suv oqimlarida suvdan foydalanish bo'yicha rioya qilishlari shart bo'lgan moddiy va protsessual qoidalar mavjud. U bir xil suv oqimini taqsimlovchi davlatlar o'rtasida shartnomalar tuzishni va Konvensiya qoidalarini suv oqimining o'ziga xos xususiyatlariga qo'llashni yoki moslashtirishni qo'llab-quvvatlaydi.⁵Bu hujjatlar aslini olganda juda ham puxta bo'lishi mumkin ammo unga amal qilishga bo'lgan xohishning yo'qligi tufayli qiymatini yo'qotmoqda.

Mintaqadagi Amudaryo va Sirdaryo havzalaridan foydalanuvchi mamlakatlarning o'zaro kelishuvlarida Afg'oniston ham qo'shilishi va aktiv qatnashishi zarur va o'zaro kelishilgan xolda suv qayta taqsimlanishi kerak chunki o'z boshimchalik bilan qilingan harakatlar tufayli davlatning o'zi ham atrofdagi qo'shnilari ham katta zarar ko'rishi mumkin. Chunki Qo'shtepa kanal qurilishining birinchi bosqichi (uzunligi taxminan 100 km) joriy yil oktyabr oyida «Tolibon» tomonidan ochilgandi. Ammo noma'lum sabablarga ko'ra Termiz shahridan 25 km narida, Afg'onistondagi Zodiyon aholi punkti shimolida joylashgan va kanalning o'pirilgan degan da'vo bilan tarqatilayotgan fotosuratlar 10 noyabr kuni sun'iy yo'ldosh orqali tasvirga olingan. Unda kanalning o'pirilgan joyi va yangi paydo bo'lgan sun'iy suv ombori ko'rsatilgan⁶. Bu xollar Markaziy Osiyo davlatlari uchun og'riqlik masaladir suv tanqisligi vaqtida.

⁵ [https://www.doi.org/10.5281/zenodo.11349737\(2-bet\)](https://www.doi.org/10.5281/zenodo.11349737(2-bet))

⁶ Kun.uz-<https://storage.kun.uz/source/10/LnUQ2xaoghSYp2ijEvCRd5xA2zbDFrc4.jpg>



Bu masala bo'yicha suv hojaligi Vazir jurnalistlarning Qo'shtepa kanali O'zbekistonga qachondan ta'sir ko'rsata boshlashi haqidagi savoliga javob berarkan, afg'onlarning ham Amudaryodan suv olishga haqi borligini ta'kidladi.

“Bunday qilib aytganda, afg'onlar ham qarindoshlarimiz. Ularning ham Amudaryodan [suv] olishga haqi bor-da. [Tarmoqlarda] Qo'shtepasini quryapti, u bo'lyapti, bu bo'lyapti, deb yozishyapti. Nima, qurol ko'tarib, [ular bilan] urushishimiz kerakmi? Yo'q, biz bordi-keldi qilyapmiz, qarindosh bo'lyapmiz, yaxshiroq munosabat quryapmiz. Ularga ham asta-sekin tushuntiramiz, o'zingizning haqingizni oling [deymiz]. Keyin hujjatlar bo'ladi, boshqa bo'ladi, bordi-keldi bo'lsa, hammasini gaplashamiz”, — deydi Xamrayev.⁷

Bundan ko'rinib turibdiki Hukumat vakillari o'zaro diplomatik aloqalarni yaxshilash orqali o'z pazitsiyalarini ko'rsatishmoqda . Biz bilan Tolibon hokimiyati yaqin aloqalarda bo'lishni tanlagan . buni quyidagi fikrlar orqali bilish mumkin .

“Afg'onistonga [shu yaqin davrda] to'rt marta borib keldim. Bizni o'z qarindoshini kutib olgandek, kutib olishdi. [Qo'shtepa kanali masalasida] sizlarni hafa qilmaymiz, degan gaplarni aytishdi. Men yaxshi niyat qilaman. Afg'onistonning tinchligi bizga ham kerak va albatta, [suv va boshqa] masalalar bosqichma-bosqich hal bo'ladi. Agar Qo'shtepa kanali qurilishi tez sur'atlarda jadallashsa, u 2028-yilga borib bitadi”, — deya qo'shimcha qildi Shavkat Xamrayev.

Havza davlatlari birgalikda “Xalqaro Huquq”ning umum e'tirof qoidalari va normalari asosida milliy va o'zaro manfaatlarni hisobga olgan xolda yangi qonun hujjatlarini imzolashi lozim. Agarda bu hujjatda belgilangan qoidalar buzulsa tegishli choralar , sanksiyalar qo'llanishi ham nazarda tutilishi lozim. Albatta oldingi qabul qilingan shartnomalardan o'rnak olgan xolda amalga oshirilishi lozim.

⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/19/qoshtepa/>